



## TIL VA TAFAKKUR O'ZARO ALOQASI: FALSAFIY TAHLIL

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali  
Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti talabasi.*

*Amonilloeva Shahina Dilshod qizi*

*Email :shakhina2161@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Til inson tafakkurining shakllanishi, ifodalanishi va ijtimoiy aloqadagi asosiy vositasi sifatida talqin qilinadi. Qadimgi va zamonaviy falsafiy yondashuvlar asosida til–tafakkur munosabatining gnoseologik va antropologik jihatlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** til, tafakkur, falsafa, gnoseologiya, ong, ma'no, hermenevtika.

**Annotation:** This thesis analyzes the relationship between language and thought from a philosophical perspective. Language is interpreted as the primary medium through which human thinking is shaped, expressed, and realized in social communication. Based on ancient and contemporary philosophical approaches, the epistemological and anthropological aspects of the language–thought relationship are examined.

**Key words:** language, thought, philosophy, epistemology, consciousness, meaning, hermeneutics.

**Аннотация:** В данном тезисе анализируется взаимосвязь между языком и мышлением с философской точки зрения. Язык рассматривается как основной инструмент формирования, выражения и реализации человеческого мышления в социальном взаимодействии. На основе древних и современных философских подходов раскрываются гносеологические и антропологические аспекты взаимоотношения языка и мышления.



**Ключевые слова:** язык, мышление, философия, гносеология, сознание, значение, герменевтика.

**Asosiy matn:** Til va tafakkur muammosi falsafaning eng qadimiy va dolzarb masalalaridan biridir. Inson tafakkuri faqat til orqali shakllanadi, chunki til nafaqat fikrni ifodalovchi, balki uni tartibga soluvchi, shakllantiruvchi vositadir. Shuning uchun ham falsafa tarixida “til – tafakkurning oynasi” degan qarashlar keng tarqalgan. Qadimgi yunon faylasuflari, xususan Platon va Aristotel, tilni insonning aqliy faoliyati bilan bevosita bog‘laganlar. Sharq mutafakkirlari – Forobiy va Ibn Sino esa tafakkurni ma’naviy jarayon sifatida ko‘rgan holda, tilni uning tashqi ifodasi deb bilganlar. Yevropa falsafasida esa bu masalaga turlicha yondashuvlar mavjud. Descartes tafakkurni ongning asosiy xususiyati sifatida talqin etgan bo‘lsa, Kant bilimning shakllanishida tilning vositachilik roliga e’tibor qaratgan. Hegel esa tilni “mutlaq ruh”ning tashqi ko‘rinishi sifatida baholagan. XX asrda analitik falsafa vakillari (Frege, Wittgenstein, Russell) tilni mantiqiy tizim sifatida tahlil qilib, tafakkur ifodasining strukturaviy asoslarini o‘rganishgan. Heidegger va Gadamer singari hermenevtik yo‘nalish vakillari esa tilni inson borlig‘ining asosi, dunyoni tushunish shakli sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, inson tafakkuri doimo til orqali mavjud bo‘ladi – ya’ni “tilsiz fikr” mavjud emas. Zamonaviy kognitiv tilshunoslik va sun’iy intellekt tadqiqotlari ham til–tafakkur aloqasining ilmiy tahlilini yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda til inson ongidagi konseptual modellarni shakllantiruvchi tizim sifatida qaralmoqda. Shunday qilib, til va tafakkur o‘zaro uzviy bog‘liq jarayonlardir. Til – tafakkurning tashqi shakli, tafakkur esa tilning ichki mazmunidir. Ularning o‘zaro birligi inson idroki, madaniyati va ijtimoiy taraqqiyotining asosiy omilini tashkil etadi. Inson psixikasidagi o‘zgarishlarga asosan til va tafakkur faoliyatlari yetakchi rol o‘ynaydi. Chunki tilda insonlarning ruhiyati, tafakkur tarzi mavjud bo‘ladi. Har bir millat, elat va xalqlar bir-birining tilini o‘rganishi natijasida ularning tafakkurida va ruhiyatida aralashuv, birikish jarayonlari sodir bo‘ladi. Inson ruhiyati tafakkur bilan



muvoqif tarzda faoliyatda bo`ladi. Dunyoni idrok etishda inson avvalo sezgilarga tayansa, so`ngra fikr va tushunchalarning so`zga barqarorlashishi natijasida hosil bo`lgan til elementlariga tayanadi va ular orqali inson o`z fikrini shakllantiradi. Ma`lumki inson tafakkuridagi o`zgarishlar ruhiyatga bevosita o`z ta`sirini ko`rsatadi. Ruhiyatdagi o`zgarishlar esa tafakkurda o`z aksini topadi. Inson tafakkuri tushunish, idrok etish, bilish asosida shakllanib boradi. Tafakkur qilish bilimlarni taqqoslash, zidlash, analiz va sintez qilishdir. Ular asosida vujudga kelgan xulosalar aqlning mahsulidir. Ong esa uning mohiyatini anglash asosida shakllanib boradi. Idrok etish, tushunish, fahmlashning asosiy elementi ko`z va quloq bo`lsa, anglash vositasi esa yurak hisoblanadi. Insonlar atrofdagi voqealarni kuzatish mobaynida ular asosida fikr yuritadilar hamda bu kuzatishlar asosida har bir inson o`ziga xulosa chiqarib, saboq oladi. Bu bilimlar insonlarning muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi va shu ijtimoiy guruhlarga xos bo`lgan madaniy qarashlari, tafakkur tarzi tasavvur olami asosida shakllangan bo`ladi. Bundan tashqari til orqali insonlar o`z fikrini ifodalab, tafakkurini rivojlantiradi. Gnoseologiya orqali tilning bilimni shakllantirishdagi roli aniqlanib boriladi. Gnoseologik nuqtayi nazardan, tafakkur til bilan uzviy bog`liq hisoblanadi, chunki so`zlar va tushunchalar fikrni shakllantiradi. Gnoseologiya til orqali bilimning an`anaviy shakllarini, tushunchalarini va ularning tafakkurdagi ifodasini tahlil qiladi. Qolaversa, gnoseologiya til va tafakkur o`rtasidagi bog`liqlikni tushunishga yordam beradi va fikrlash va bilim olish jarayonlarini samarali shakllantiradi.

**Ong**-insonning o`z fikri, his-tuyg`usi, bilimi va qarorlari haqida xabardor bo`lishi, tafakkur va idrok qilish qobiliyati hisoblanadi. Ong insonning tafakkurini boshqaradi. Bundan tashqari fikrlarni tahlil qilish, ularni tartibga solish va qaror qabul qilish ong orqali amalga oshadi.



**Ma'noning roli:** Soʻz va iboralar ma'noni tashiydi shuning uchun til tafakkurning vositasi hisoblanadi. Har bir tushuncha va bilim ma'no orqali ongda shakllandi. Til orqali ma'no tafakkurda tizimli va mantiqiy ravishda joylashadi.

**Hermenevtika**-(yun.hermeneuo-aniqlayman)-izohlash nazariyasi va metodologiyasi. Xususan, diniy-falsafiy matnlarni hamda hikmatli adabiyotlarni sharhlash hermenevtika deb ataladi.

**Xulosa:** Hozirgi zamonaviy tilshunoslarning nazariyasiga koʻra, til va tafakkur oʻrtasidagi farq ikki tomonlama: tafakkur tilni hosil qiladi, til esa tafakkurni rivojlantiradi. Yangi iboralar va tushunchalar vujudga kelishi fikr doirasining kengayganidan xabar bersa, til imkoniyatlarining ortishi esa, tafakkurning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Inson tafakkuri va ijtimoiy ongning shakllanishida va rivojlanishida til va tafakkur oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ular oʻzaro bir-birini toʻldiruvchi va boyituvchi hodisalar hisoblanib, ularni alohida oʻrganishning iloji yoʻq.

**Til**-tafakkur ifodasi, tafakkur esa tilga jon baxsh etuvchi ichki mazmundir. Shu sabab, til va tafakkurni oʻrganish umumiy tilshunoslikdagi asosiy yoʻnalishlardan biri sifatida qaraladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulazizov A. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent: Oʻzbekiston Milliy universiteti, 2016.
2. Hasanov B. Til va tafakkur: muammolar va yechimlar. // Tilshunoslik izlanishlari, 2020
3. Humoboldt V. fon. Til va tafakkur haqida. - Tarjimasi: OʻZR FA Tilshunoslik instituti, 2003.
4. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Noshir Z. Tafakkur va tilning oʻzaro bogʻliqligi. // Filologiya va tillarni oʻqitish, 2021